



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

VIZUALIZATSIYAGA ASOSLANGAN MASHQLAR TIZIMI TADQIQI

Ortiqova Tursunoy Jumanazar qizi

Guliston davlat universiteti 2-bosqich, tayanch doktoranti

email: ortiqovaturunoy66@gmail.com

tel: +99899-758-39-48

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178855>

Annotatsiya. Ushbu maqolada vizualizatsiyali o'qitishning afzalligi tadqiq qilingan va asosiy vizual texnikalar sharxlangan. Tadqiqod natijasi o'rnida o'z ichida bir nechta texnikalarni mujassamlovchi mobil ilova ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: til ko'nikmalari, vizualizatsiya vositalari, eslatma qayd qilish, grafiklar, komiks, mobil ilova

Kirish. Vizualizatsiyali o'qitish dastavval informatika va matematika sohalarida yuzaga kelgan. Bu o'qitish usulining tashkil topishiga birinchilardan bo'lib hissa qo'shgan shaxslardan biri Mariland Universiteti kompyuter ilmi olimi, professor B.Shnayderman hisoblanadi. Shnayderman foydalanuvchilarga ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish va o'zaro aloqada bo'lishga yordam berish uchun murakkab ma'lumotlar to'plamlari va axborot tuzilmalarini vizualizatsiya qilish uchun texnika va vositalarni ishlab chiqish borasidagi ishi bilan mashhur [1]. Uning tadqiqotlari axborotni vizualizatsiya qilish sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va bugungi kunda ko'plab vizualizatsiya usullari va vositalarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Xususan, Tilni o'qitishda vizualizatsiyadan foydalanish bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlardan biri bu - oqim nazariyasi kontseptsiyasini ishlab chiqqan va vizual hamda interaktiv materiallar orqali o'quvchilarni jalb qilish muhimligini ta'kidlagan Vengriyalik Mixali Csikszentmihalyidir [3]. Bundan tashqari, Skott Tornberi va Jeremi Xarmer kabi boshqa o'qituvchilar va tadqiqotchilar ham til o'qitishda vizualizatsiya texnikasidan foydalanishni targ'ib qilishgan.

Metodologiya. Bir qator zamonaviy tillar haqidagi yangi bilimlarni o'zlashtirish bugungi shiddatli zamon talabi. O'z o'rnida inson ongi dastavval o'zi sezadi. Bu jarayonlarni osonlashtirish uchun ma'lum texnika va muayyan metodga ehtiyoj paydo bo'lishi shubxasiz. Vizualizatsiya metodini tashkil etuvchi mashqlar tizimi boshqa sohalar singari til o'qitish metodologiyasida ham keng qo'llanilmoqda. Shu o'rinda "vizualizatsiya yoki vizualizatsiyali o'qitish nima, uning tarkibini tashkil etuvchi qismlar qaysilar?" kabi savollar tug'iladi. Shnayderman vizualizatsiya haqida



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

shunday deydi: “axborotni *xarita, surat* yordamida vizual aks ettirish uning matn yoki og‘zaki shaklda sharxlashdan ko‘ra ancha osonroqdir.” Bundan tashqari, Maslichah va Siti Tarwiyahlar tavsiflovchi matn yozish ko‘nikmasini o‘quvchilar samarali o‘zlashtirishlarida vizualiazatsiya tarkibiy qismi bo‘lgan grafik organayzerlarning o‘rni haqida shunday deydi: “Grafik organayzerlar vizual vositalardan biridir, chunki ularni ko‘rish mumkin bo‘lib, ma’noli tavsiflar yaratish funksiyasini amalga oshiradi. L.Naumenko ukrain tilini o‘qitishda zamonaviy vizualizatsiya texnikalaridan foydalangan[4]. U tadqiqot ishida mobil ilova, turli ko‘rinishdagi shaklli tasvirlar yordamida ukrain adabiyotini o‘qitish metodini ishlab chiqqan.

Vizualizatsiyali mashqlar tizimi

1. *Grafik organayzerlar va infografiklar (graphic organizers and infographics)*

Biror g‘oya yoki fikrni harflar va vizual tasvirlar orqali yetkazib berishda grafiklardan foydalaniladi. Grafiklar hamma yerda oson ko‘zga tashlanib turgani uchun bu usulda ma‘lumot o‘zlashtirish oson [5]. Grafikali yoki jadval shaklidagi ma‘lumot an’anaviy matn ko‘rinishidagi shaklidan ko‘ra e‘tiborni ko‘proq jalb qiladi va o‘rganib ko‘rishga qiziqishni tezroq shakllantiradi. Grafika va infografika orqali aslida murakkab tuzilmali matnni osonlashtirilgan ko‘rinishda qabul qiluvxhiga yetkazib berish mumkin. Vizualizatsiyaning ushbu tarkibiy bo‘laklarining asosiy vazifasi axborotni diagramma va grafiklardan foydalangan holda tez va aniq yetkazib berishdan iboratdir [6]. Bu turdagi vizualizatsiya qurollarini til ko‘nikmalarini, asosan o‘qib tushunish (reading) va yozish (writing) qobiliyatlarini rivojlantishda samarali qo‘llash mumkin. Xususan, o‘qib tushunish matnlarida sinonimik-antonimik jadvaldan, yozish qobiliyatini rivojlantirishda esa brainstorming texnikalaridan foydalanish mumkin.

2. *Komiks (comics)*

Komikslar rasm ko‘rinishidagi hikoyalardir. Komikslar o‘qituvchilarga o‘quvchilarni vizual bilim egallash, yozish qobiliyati, til tarixi va lug‘at boyligidagi so‘zlar etimologiyasi ustida muhim munozaralar olib borishga jalb etish imkoniyatlarini yaratadi [7]. Vizualizatsiyaning ushbu ko‘rinishi ko‘proq til grammatikasini o‘qitishda qo‘l keladi. Garchi bu shaklli vizualizatsiya vositasi asosan kichik yoshdagi til o‘rganuvchilariga xosdek bo‘lib ko‘rinsada, aslida barcha yosh vakillari uchun birdek samara bera oladi. Komikslar o‘rta hamda katta yoshdagi til



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

o'rganuvchilarining gapirish (speaking) qobiliyati rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin.

3. *Taqdimotlar (multimedia presentations)*

Taqdimotlar ta'lim berishda eng ko'p qo'llaniladigan vizualizatsiya texnikalaridan biridir. Taqdimotlar oddiy matnni bir nechta vizualizatsiya tarkibiy qismlaridan bir vaqtning o'zida foydalanilgan jamlanmasidir. Chunki u illustratsiyalar, grafikalar, har xil tasvirlar, chizmalar va rasmlardan iborat bo'ladi [5].

4. *Mobil ilovalar (mobile apps)*

Til ko'nikmalarini rivojlantirishda mobil ilovalardan foydalanish til o'rganuvchisi uchun ancha qulaylik yaratadi va ko'p vaqt tejaydi. Bunday ilovalardan eng ko'p foydalaniladiganlaridan biri **IELTS speaking assistant**. Ushbu ilova gapirish qobiliyatini o'stirishga ko'mak beradi.

5. *Matn asosidagi vizual eslatmalar yozib olish (text-based visual note-taking)* [2]

Ushbu vizualizatsiya vositasining har xil shakllari mavjud. Ular: matnli eslatmalar qaydnomasi, rasmi eslatmalar qaydnomasi, xaritali yoki grafikli eslatmalar qaydnomasi kabilardir. Eslatmalar yozib olish xotira hamda tasavvur kuchini oshirib, mavhum tushunchalarni osonroq anglab yetish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, ingliz tilida "listening" (eshitib tushunish) qobiliyatini rivojlantirish uchun ushbu texnikadan foydalanish mumkin. Bu jarayonda audio matn eshitish bilan bir vaqtning o'zida kerakli jumlani topib olish yoki aniq javobni isbotlash uchun audio eshittirishda aytilayotgan yondosh so'zlarni, yoki javob bilan tenglasha oladigan yoki uning ma'nosiga zid bo'la oladigan so'zning alternativ variantini qayd qilib olish (note-taking) samarali yordam beradi.

Natijalar. Yuqorida takidlab o'tilgan texnikalarning ayrimlari jamlangan holda **English Visual Listening (EVL)** nomli mobil ilova yaratildi. Ushbu ilovaning o'zi vizual vositaning bir ko'rinishi hisoblanib, bundan tashqari tuzilma tarkibida boshqa vizual texnikalar ham mujassamlashgan.

Ilova tuzilmasini tashkil etuvchi texnikalar: note-taking, mapping, grafikli tasvirlar. Tajribaning prognozli prodsedurasi. Mobil ilova til o'rganuvchilarining asosan "listening" mahoratini takomillashtirishga qaratilgan. Keying o'rinlarda ilovada "reading" (o'qib tushunish) qobiliyatini shakllantirishga ham e'tibor qaratilgan. Tajriba ishtirokchilari: tadqiqot 1-bosqich ingliz tili mutaxassisligi yo'nalishida taxsil oluvchi talabalar ustida olib boriladi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi zamonaviy o'qitish tizimi ta'limda samaradorlik va yengillikni talab qilmoqda. Ushbu ehtiyojdan vizualizatsiya texnikalari orqali til o'qitish tizimidagi bir qator murakkabliklar osonlashadi, mavhum tushunchalar tasvirli shaklda o'quvchi ongida tez va uzoq muddatli bo'lib muxrlanadi. Buning sababi inson miyasida optik neyronlarning soni ko'p ekanligi haqidagi fakt bilan ham, 65% axborot ko'z orqali qabul qilinishi to'g'risidagi ma'lumot bilan ham tasdiqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mihaly Csikszentmihalyi, book. Flow: The Psychology of Optimal Experience. Chicago, March 1990 Harper Collins Publishers Inc. <http://oceanofpdf.com/>
2. Liudmyla NAUMENKO, Vitaliia MUNTIAN. The novel visualization techniques of teaching Ukrainian literature in the secondary school. EUROPEJSKIE STUDIA HUMANISTYCZNE: Państwo i Społeczeństwo Issue 1, 2020, pp 83-101.
3. Miller, S. (2011). Using graphic organizers to increase writing performance. Unpublished MA thesis. State University of New York at Fredonia.
4. Малыгина Надежда Игоревна, THE USE OF VISUALIZATION TECHNIQUES IN TEACHING ENGLISH AT A MILITARY ACADEMY. Unpublished article.
5. Boyd, Brian. Using Comics & Superheroes to Teach Grammar. [Macmillan Education ELT Webinar]. URL: <https://youtu.be/GrUbpvSTzTk> (reference date 15.01.2018).

Foydali elektron saytlar:

6. <https://www.cs.umd.edu/~ben/papers/Shneiderman1996eyes.pdf>
7. <https://medium.com/@danielasgharian/your-guide-to-visual-note-taking-dceacdca47c1>